



**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

# OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

## **TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## **TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** (Bosh muharrir o'rinnbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimkulovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**FARFIYEV Bahromjon Atxamtdjanovich** – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

**ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich** – *tarix fanlari doktori, professor.*

**KARAMYAN Marietta Xachaturovna** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSLIMOV Narzulla Alihanovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**NURMATOVA Mukarram Axmedovna** – *falsafa fanlari doktori, professor.*

**NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*

**RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna** – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

**SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna** – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**ATAMURATOV Rasuljon Kadirkhonovich** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**SODIQOVA Shohida Marhobayevna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich** – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*

**JABBAROV Ulug'bek Abdurakhmanovich** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**HOJIYEV Rasulbek Boynazar o'g'li** – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

### **ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (Главный редактор) – доктор педагогических наук, профессор.

### **ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** (Заместитель главного редактора) – доктор педагогических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** – доктор экономических наук, профессор.

**Бегимкулов Узокбай Шоимкулович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Фарфиев Баҳромжон Атҳамдҷановиҷ** – доктор социологических наук, доцент.

**Ишкуватов Валикул Турдиевич** – доктор исторических наук, профессор.

**Карамян Мариэтта Хачатуровна** – доктор психологических наук, профессор.

**Муслимов Нарзулла Алиханович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Нурматова Мукаррам Ахмедовна** – доктор философских наук, профессор.

**Нарматов Нуриддин Соатмурадович** – доктор юридических наук, профессор.

**Рахманкулова Нилуфар Ҳоджи-Ақбаровна** – доктор юридических наук, доцент.

**Сайдивалиева Хуршида Ҳоджиакбаровна** – доктор философии юридических наук (PhD).

**Атамуратов Расулжон Қадиржонович** – доктор философии педагогических наук (PhD).

**Содикова Шоҳида Мархобаевна** – доктор социологических наук, профессор.

**Умирзаков Баҳодир Ҳамидович** – доктор экономических наук, профессор.

**Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевиҷ** – доктор географических наук, доцент.

**Жаббаров Улугбек Абдураҳмановиҷ** – доктор философии педагогических наук (PhD).

**Ҳоджинев Расулбек Бойназар оғлы** – доктор философии (PhD) по философским наукам.

### **THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna** (*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

### **MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – Doctor of Sociological sciences, Professor.

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** – Doctor of Economic Sciences, Professor.

**Beginkulov Uzokhboy Shoimkulovich** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

**Farfiyev Bakhromjon Atkhamedjanovich** – Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.

**Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich** – Doctor of Historical Sciences, Professor.

**Karamyan Marietta Khachaturovna** – Doctor of Psychological Sciences, Professor.

**Muslimov Narzulla Alikhanovich** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

**Nurmatova Mukharram Akhmedovna** – Doctor of Philosophical Sciences, Professor.

**Narmatov Nuriddin Soatmuradovich** – Doctor of Law Sciences, Professor.

**Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna** – Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.

**Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna** – Doctor of Philosophy in Law (PhD).

**Atamuratov Rasuljon Kadirkhonovich** – Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).

**Sodikova Shohida Markhobayevna** – Doctor of Sociological Sciences, Professor.

**Umirzakov Bakhodir Khamidovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich** – Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.

**Djabbarov Ulughbek Abdurakhmanovich** – Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).

**Khodjiev Rasulbek Boynazar ogli** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences.

*SOTSILOGIYA*

<b>Usmonova R.M.</b> O‘zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligini kamaytirishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining sotsilogik tahlili .....	4
---	---

*JAMIYAT VA OILA*

<b>Axunov M.M.</b> Aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	17
<b>Yulchiyeva D.</b> Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mohiyati .....	26
<b>Davlatova H.U.</b> Yoshlar orasida intellektual migratsiya ko‘lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish.....	36

*IJTIMOIY PEDAGOGIKA*

<b>Matkarimov A.M.</b> Oilada ta’lim muhitini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari .....	46
<b>Ummatkulova N.</b> Oila va maktab hamkorligida o‘smirlarning aqliy rivojlanishini takomillashtirish.....	53
<b>Qahhorova F.Y.</b> Ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodlari .....	60
<b>Rustamova N.Y.</b> Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari metodikasi mazmunini tahlil qilish.....	67
<b>Egamberdiyeva G.B.</b> Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni.....	79

*IJTIMOIY PSIXOLOGIYA*

<b>Arzikulov D.N.</b> Mutaxassislar shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy-psixologik omillari.....	89
<b>Shamsiyev O‘.B.</b> Bolalar chapaqayligi xususida.....	94
<b>Абдуганиева Д.А.</b> Влияние семейного воспитания на формирование эмоционального состояния личности .....	100
<b>Xudoyorova M.X.</b> Ta’lim psixologiyasining talabalar o‘zlashtirishidagi ahamiyati .....	109
<b>Ashurova A.N.</b> O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishning psixologik omillari .....	119
<b>Nazarova M.Y.</b> Xotin-qizlarga nisbatan kiberzo‘ravonlik: sabab, oqibat va himoya mexanizmlari.....	127

**Ummatkulova Nigora,**  
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti  
tayanch doktoranti*



# OILA VA MAKTAB HAMKORLIGIDA O'SMIRLARNING AQLIY RIVOJLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik o'smirlarning aqliy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi. Oila va maktab birgalikda ishlashi aqliy qobiliyatlar, akademik natijalar va shaxsiy o'sishga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishini o'rghanadi. Maqolada oila va maktab birgalikda ishlashining turli usullari, jumladan, aloqa strategiyalari, umumiy mas'uliyat va hamkorlikdagi faoliyatlar keltirilgan.*

**Аннотация.** В данной статье анализирует, как сотрудничество между семьей и школой влияет на умственное развитие подростков. Изучает, как совместная работа семьи и школы положительно влияет на интеллектуальные способности, академические результаты и личностный рост. В статье представлены различные способы совместной работы семьи и школы, включая коммуникационные стратегии, общую ответственность и совместную деятельность.

**Annotation.** This article analyzes how cooperation between family and school affects adolescents' mental development. It explores how collaboration between family and school can positively impact cognitive abilities, academic performance, and personal growth. The article presents various ways of family and school collaboration, including communication strategies, shared responsibility, and collaborative activities.

**Tayanch so'zlar:** oila va maktab hamkorligi, aqliy rivojlanish, o'smirlar, aqliy qobiliyatlar, akademik natijalar, metod, ta'lim, o'qitish, texnologiya, o'quvchi, ta'sir.

**Ключевые слова:** сотрудничество семьи и школы, умственное развитие, подростки, умственные способности, академические результаты, метод, воспитание, обучение, технология, ученик, влияние.

**Keywords:** cooperation of family and school, mental development, adolescents, mental abilities, academic results, method, education, teaching, technology, student, influence.

**Maqsad oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikning o'smirlar aqliy rivojlanishi hamda akademik yutuqlariga ta'sirini o'rganishdir.**  
**Ushbu maqsadni asoslash uchun bir necha muhim jihatlarni ko'rib chiqish zarur.**  
**Birinchidan, o'smirlarning aqliy qobiliyatları va akademik natijalari oila va maktab o'rtasidagi o'zaro aloqalarga bog'liq.**

**Kirish.** O'smirlik davri inson rivojlanishining eng muhim va o'zgaruvchan bosqichlaridan biridir. Bu davrda o'smirlar nafaqat jismoniy, balki aqliy, emotsiyonal va ijtimoiy jihatdan ham keskin o'zgarishlarni boshdan kechiradilar. Aynan shu davrda ularning ta'lism olishdagi muvaffaqiyatlari, aqliy va emotsiyonal rivojlanishi uchun ta'lism muhitining ahamiyati ortadi. Ta'lism jarayonida oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikning ta'siri nihoyatda katta. Oila va mакtabning samarali hamkorligi o'smirlarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish, akademik yutuqlarga erishish va emotsiyonal barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Maqolaning maqsadi oila va maktab hamkorligi o'smirlarning aqliy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tahlil qilish, shu orqali o'smirlarning ta'limga muvaffaqiyatlari va shaxsiy rivojlanishlarini yaxshilashga qanday usullarni taklif qilishni ko'rsatishdir<sup>1</sup>.

**Maqsad va uni asoslash.** Maqsad oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikning o'smirlar aqliy rivojlanishi hamda akademik yutuqlariga ta'sirini o'rganishdir. Ushbu maqsadni asoslash uchun bir necha muhim jihatlarni ko'rib chiqish zarur. Birinchidan, o'smirlarning aqliy qobiliyatları va akademik natijalari oila va maktab o'rtasidagi o'zaro aloqalarga bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida doimiy muloqot, ijobiy hamkorlik va qo'llab-quvvatlash o'smirlarning ta'limga muvaffaqiyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Oila maktabdagi o'qish jarayoniga bevosita ta'sir o'tkazgan holda o'smirning umumiy rivojlanishiga ham yordam beradi. Ikkinchidan, mакtabda o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga akademik muvaffaqiyatga erishishda yordam berish uchun o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida ishonchli hamda samarali hamkorlik zarur. Shuning bois o'smirlarning aqliy rivojlanishida oila va maktab hamkorligining o'mi va ahamiyatini chuqr tahlil qilish, ta'lism jarayonining sifatini yaxshilash uchun kerakli metodologiyalarni ishlab chiqish zarur<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Epstein, J. L., & Sheldon, S. B. (2002). Present and accounted for: Improving student attendance through family and community involvement // The Journal of Educational Research, 95(5), 308-318. DOI: 10.1080/00220670209596604. <https://www.attendanceworks.org/present-and-accounted-for/>

<sup>2</sup> Hoover-Dempsey, K. V., & Sandler, H. M. (1997). Why do parents become involved in their children's education? Review of Educational Research, 67 (1), 3-42. DOI: 10.3102/00346543067001003.

1-jadval

**Ota-onaning ishtiroki va akademik natijalarga ta'siri**

Ota-onaning ishtiroki turi	Akademik natijalarga ta'siri
Maktab yig' ilishlarida qatnashish	Yaxshilangan baholar va motivatsiya
Uy vazifasini bajarishda yordam	Muammolarni hal qilish qobiliyatining oshishi
Mustaqil o'r ganishni rag'batlantirish	Tanqidiy fikrlash qobiliyatining yaxshilanishi
Yuqori kutishlar o'rnatish	Akademik motivatsiya oshishi

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Ilmiy muammo oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik o'smirlarning aqliy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi va bu jarayonning samarali tashkil etilishi bilan bog'liq. O'smirlarning qobiliyati rivojlanishida ta'lim muhitining, shu jumladan, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning ahamiyati juda katta. Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilash orqali o'smirlarning ta'limga muvaffaqiyatlarini oshirish va ularga qo'llab-quvvatlash ko'rsatish imkoniyatlari yanada kengayadi. Biroq bu jarayonda bir qancha muammolar ham mavjud. Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida aloqa yo'qligi, vaqt chekllovleri yoki ijtimoiy-iqtisodiy to'siqlar ba'zan o'smirlarning ta'limga muvaffaqiyatlariga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun oila-maktab hamkorligini samarali yo'lga qo'yish uchun yangi metodologiyalar va strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Ilmiy yechim sifatida o'smirlarning aqliy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi oila va maktab hamkorligini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir. Bunga ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida doimiy uchrashuvlar, o'zaro ishonchni mustahkamlash, ta'lim jarayonida birgalikda ishlash va o'smirlarga individual yondashuvni joriy etish kiradi<sup>3</sup>. O'smirlarning ta'limga muvaffaqiyatlarini oshirish uchun ota-onalar faollik ko'rsatishlari, o'quvchilarga yordam berishlari va maktabda bo'layotgan tadbirdarda ishtirok etishlari kerak. Maktab o'qituvchilari esa o'z pedagogik metodologiyalarini o'smirlarning individual ehtiyojlari moslashtirishlari zarur. Shuningdek, oila va maktab o'rtasida ishonchli va ochiq muloqot o'smirning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

*Ota-onalar va  
o'qituvchilar  
o'rtasida aloqa  
yo'qligi, vaqt  
cheklovlari yoki  
ijtimoiy-iqtisodiy  
to'siqlar ba'zan  
o'smirlarning  
ta'limga  
muvaqqiyatlariga  
to'sqinlik qiladi.  
Shuning uchun  
oila-maktab  
hamkorligini  
samarali  
yo'lga qo'yish  
uchun yangi  
metodologiyalar va  
strategiyalar ishlab  
chiqilishi zarur.*

<sup>3</sup> Hill, N.E., & Tyson, D.F. (2009). Parental involvement in middle school: A meta-analytic assessment of the strategies that promote achievement. *Developmental Psychology, 45*(3), 740-763. DOI: 10.1037/a0015362.

2-jadval

**Oila-maktab hamkorligining foydalari**

Foydasi	Ta'rifi
Akademik yutuqlar yaxshilanishi	Oila va maktab birligida ishlaganda, talabalarning akademik natijalari yaxshilanadi
Emotsional qo'llab-quvvatlash	O'smirlar emotsional qo'llab-quvvatlashni olish orqali stressni kamaytiradilar va o'qishga qiziqishlarini oshiradilar
Ijobiy ijtimoiy munosabatlari	O'smirlarning o'zaro munosabatlari va oila bilan aloqalari mustahkamlanadi

Jamoat kengashining Nizomidan kelib chiqib, Jamoat kengashining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

1. Ota-on, mahalla va ta'lif muassasalarining hamkorligini mustahkamlash, shu orqali ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, majburiyati, o'zaro munosabati va mas'uliyatini kuchaytirish.
2. Jamoat kengashlari faoliyatini metodik ta'minlash, ta'lif muassasalaridagi ta'lif-tarbiya sifatini o'rganish va ularni yanada takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish.
3. Voyaga yetmaganlar qarovsizligi va ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish, yoshlarni turli yot g'oyalar tahdididan himoya qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.
4. O'quvchilarni dars jarayoniga to'liq jalb etish va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash.
5. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, ayniqsa, ta'lif tizimidagi islohotlar haqida o'quvchilar, ota-onalar va keng jamoatchilikning uzviy xabardorligini ta'minlash.
6. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Oila va maktabning hamkorlikdagi faoliyati murakkab ko'rinishga ega bo'lib, tadqiqotda mazkur jarayon samaradorligini oshirishning pedagogik ta'minotini ishlab chiqishga e'tibor qaratildi.

<b>Maqsad: oila va maktab integratsiyasining pedagogik ta'minotini yaratish</b>				
<b>Metodologik blok</b>				
Vazifalar	O'qituvchilar va ota-onalarning hamkorligini yo'lga yo'lga qo'yish	O'quvchi shaxsini yaxlit rivojlantirish maqsadida o'qituvchilar va ota-onalarning birgalikdagi faoliyati va yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tahlil etish	Pedagogik integratsiya subyektlarida bilish faolligi, turfa xil qiziqishlar, mas'uliyat hissi, o'z-o'zini nazorat qilish, hurmat va sabrlilikni rivojlantirishga erishish	
<b>Amaliy blok</b>				
Bosqichlar	1. Motivatsion. 2. Kommunikativ-faoliyatli. 3. Kognitiv. 4. Refleksiv 1. Interfaollik (ta'lism jarayonining asosiy subyektlari sifatida o'qituvchi va ota-onalarning o'zaro birgalikdagi faoliyati). 2. Madaniyat bilan uyg'unlik (ijtimoiy-madaniy muhiti, shuningdek, o'qituvchi va ota-onalarning pedagogik madaniyati). 3. Loyihalash (ta'lism muhitining o'ziga xosliklari bilan aloqadorlikda ta'lism muhitini loyihalash). 4. Majmuaviylik (integratsiya jarayoni ishtirokchilarida integrativ qobiliyatlarni shakkantirishning o'zaro aloqadorligini hisobga olish)			
<b>Baholovchi-natijaviy</b>				
Mezonlar	Motivatsion	Kommunikativ faoliyatga doir	Kognitiv	Refleksiv
Ko'rsatkich-lar	Integratsiyaga o'qituvchilar va ota-onalarning intilishi	O'qituvchilar va ota-onalarning pedagogik nuqtayi nazarlarining mosligi	O'qituvchilar va ota-onalarning pedagogik integrativ faoliyatining nazariy asoslari	Mazkur jarayonni takomillashtirish uchun o'qituvchilar va ota-onalarning faoliyatini modellashtirish

**1-rasm. Oila va maktabning hamkorlikdagi faoliyatini integratsiyalash modeli**

Motivatsion bosqichda integratsiya jarayonini o'qituvchi va ota-onalar tomonidan to'g'ri anglanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi va "integratsiya – bu integrativ faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni aks ettiruvchi shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qituvchi va ota-onalarning pedagogik munosabatlarining yangi darajasi", degan tushuncha qaror toptiriladi<sup>4</sup>.

<sup>4</sup> Chavkin, N.F., & Williams, D. L. (1989). The minority parent and the elementary school: Attitudes and practices // The Elementary School Journal, 91(3), 273-284.  
DOI: 10.1086/461599.

Kommunikativ faoliyatga yo‘naltirilgan bosqich o‘qituvchi va ota-onalarning o‘zaro faoliyati uyg‘unlashuvi, shuningdek, oila va maktabning pedagogik vazifalarining o‘ziga xosligi, ularning pedagogik imkoniyatlari yuqori ekanligini anglashiga imkon beradi. Shuning uchun kommunikativ faoliyatga yo‘naltirilgan bosqichda o‘qituvchi va ota-onalarning ta’lim muassasasining standart talablari doirasida integrativ pedagogik faoliyatini hamkorlikda loyihalash va amalga oshirish, shuningdek, mazkur faoliyat natijalari asosida o‘qituvchi va ota-onalarning muammolarini o‘zaro birgalikda hal etilishiga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Kognitiv bosqichda integratsion jarayon subyektlarida integratsiya fenomeni, uning tuzilishi, mazmuni, shuningdek, mazkur jarayonni samarali amalga oshirish shart-sharoitlari haqidagi quyidagi bilimlarni tarkib toptirish talab etiladi: o‘qituvchi va ota-onalarning pedagogik integrativ faoliyatning nazariy asoslarini o‘zlashtirishi; oila va maktab integratsiyasining pedagogik ta’minotini yaratish tizimi haqidagi tasavvurlarini shakllantirishi hamda rivojlantirishi; o‘qituvchi va ota-onalarning tarbiyaning samarali texnika va texnologiyalarini o‘rganishi.

*3-jadval*

**Oila va maktab integratsiyasining pedagogik ta’minoti  
samaradorligini baholash mezonlari**

Bosqichlari	Mezonlari
<b>Motivatsion</b>	integratsiya – ta’lim jarayoniga o‘qituvchi va ota-onalarning ijobiy-emotsional munosabati, zamонави мактаб учун integratsiya jarayoni zarurligining ijtimoiy ahamiyati anglanishi
<b>Kommunikativ faoliyatga doir</b>	o‘qituvchi va ota-onalarning o‘z pedagogik faoliyatining o‘ziga xosliklarini aniq ko‘ra olishi; o‘zaro tarbiyaviy imkoniyatlarini birlashtira olishi; hamkorlikda ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishi; ta’lim jarayonidagi ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog‘liqlikda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishi
<b>Kognitiv</b>	nazariy va metodik bilimlar to‘liqligi; o‘qituvchi va ota-onalarda integratsiya tizimi haqida tasavvurlar shakllanganligi
<b>Refleksiv</b>	ta’lim amaliyotini tahlil etish, pedagogik muammolarni anglash, qiyinchiliklarni bartaraf etishga doir pedagogik faoliyatni loyihalashtirish, pedagogik maqsad va vazifalarini muvaffaqiyatlari bajarish, o‘qituvchi va ota-onalar ta’lim-tarbiya jarayonida yo‘l qo‘yadigan xatolarini anglashi; refleksiv qadamlar ketma-ketligini aniqlashtirishi

Oila va maktab integratsiyasi pedagogik ta’minotining muhim bosqichi refleksiya bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchi va ota-onalar o‘zlarining pedagogik faoliyatining samaradorligini tahlil etishadi,

qiyinchiliklar, muammolar va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni aniqlashtirishadi<sup>5</sup>.

Yana bir jihatni ta’kidlab o‘tish lozimki, taklif etilgan model invariant tarkibiy asoslarga ega bo‘lib, barcha bosqichlarda uni oilaning o‘ziga xosliklari (tarkibi, ijtimoiy holati, tarbiyaviy imkoniyatlari, diniy mansubligi) bilan bog‘liqlikda amalga oshirilishi mumkin (3-jadval).

Oila va maktab integratsiyasining pedagogik ta’minotini amalga oshirishning har bir bosqichi samaradorligi mezonlarini aniqlash orqali shunga amin bo‘lindiki, ularning har biri xususiy shkala bo‘yicha o‘lchanishi va baholanishi lozim. Ularning hammasi uchun umumiy shkala sifatida natijalarini darajaviy tavsif asosida tahlil etish imkoniyati aniqlandi: yuqori, o‘rta va past.

**Yakuniy qism.** Xulosa qilib aytganda, oila va maktab o‘rtasidagi samarali hamkorlik o‘smirlarning aqliy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi yaxshilangan aloqa va hamkorlik o‘smirlarning akademik muvaffaqiyatlarini, aqliy qobiliyatlarini va emotsiunal holatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bu hamkorlik o‘smirlarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi hamda ularning ta’limdagi muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim omil bo‘ladi. Oila va maktab birgalikdagi ishlashi orqali o‘smirlarning aqliy salohiyatini rivojlantirish va ularning ta’limdagi muvaffaqiyatlarini oshirishga erishish mumkin. O‘smirlarning aqliy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish uchun yangi strategiyalar va metodologiyalarni ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

<sup>5</sup> Jeynes, W.H. (2005). A meta-analysis of the relation of parental involvement to urban elementary school student academic achievement. // Urban Education, 40(3), 237-269. DOI: 10.1177/0042085905274540

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Epstein, J.L., & Sheldon, S.B. (2002). Present and accounted for: Improving student attendance through family and community involvement // The Journal of Educational Research, 95(5), 308-318. DOI: 10.1080/00220670209596604.
2. Hoover-Dempsey, K.V., & Sandler, H.M. (1997). Why do parents become involved in their children’s education? Review of Educational Research, 67 (1), 3-42. DOI: 10.3102/00346543067001003.
3. Hill, N.E., & Tyson, D.F. (2009). Parental involvement in middle school: A meta-analytic assessment of the strategies that promote achievement. Developmental Psychology, 45(3), 740-763. DOI: 10.1037/a0015362.
4. Chavkin, N.F., & Williams, D.L. (1989). The minority parent and the elementary school: Attitudes and practices // The Elementary School Journal, 91(3), 273-284. DOI: 10.1086/461599
5. Jeynes, W.H. (2005). A meta-analysis of the relation of parental involvement to urban elementary school student academic achievement // Urban Education, 40(3), 237-269. DOI: 10.1177/0042085905274540

**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»  
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE**

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA  
IJTIMOIY HAYOT  
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ  
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE**

*elektron ilmiy jurnal*  
*электронный научный журнал*  
*electronic scientific journal*

**1/2025**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-soni  
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.  
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy  
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni  
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»  
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.  
Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,  
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных  
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and  
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.  
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific  
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions  
of makhalla, family and gender equality.*

**MUASSIS:**  
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,  
Jabborov U., E.Sultonov**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2024.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8  
Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“Pages Print” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.  
Тошкент, Олмазор тумани, Чимбай кўчаси, 8-уй.